

---

## HOKIM QABULI: KO'PLAB MUROJAATLAR HAL ETILDI

Bugun O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Toshloq tumani Xalq qabulxonasida tuman hokimi Abduqahhor Djurabayevning navbatdagi qabuli o'tkazildi.

Qabul davomida tumandagi barcha korxonalar va tashkilotlarning mutasaddilari ishtirok etib, har bir muammoni joyida bartaraf etishga harakat qilindi. Ayrim muddat talab etilgan murojaatlar qat'iy nazoratga olindi.

Qabulda 30 nafar fuqarolarning murojaatlari eshitildi. Moddiy yordam ajratish, ishga joylashish, imtiyozli kredit olish, gaz, suv, elektr ta'minotini yaxshilash kabi 10 ta murojaat joyning o'zida ijobiy hal etilib, 5 nafar fuqaroga moddiy yordam ajratish belgilandi. Qo'shimcha o'rganish, muddat talab etilgan 10 tasi nazoratga olindi. 5 ta murojaatga atroflicha tushuntirishlar berildi.

2023-05-23 15:39:16